

XIVA XONLIGIDA SUG'ORISH TIZMI

O'ktamov Tohirjon G'ayrat o'g'li, Namangan davlat universiteti
Tarix yo'nalishi talabasi

IRRIGATION SYSTEM IN THE KHIVA
KHANATE

Uktamov Tohirjon Gayrat oglu, Namangan State University
Student of History

ОРОШИТЕЛЬНАЯ СИСТЕМА В ХИВИНСКОМ
ХАНСТВЕ


Уктамов Тохирджон Гайрат оглы, студент исторического
факультета Наманганского государственного
университета



<https://orcid.org/0009-0008-1644-4796>

e-mail:

oktamovtohir2@gmail.com



Annotatsiya: Mazkur maqolada Xiva xonligining sug'orish tizmi, xususan Anushaxon va Olloqulixon davrida qishloq xo'jaligida qilingan ishlar, yerlarni sug'orish uchun qazilgan Shohobod, Yormish va Polvon kanallari haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, Anushaxon, Shohobod, Yormish, Olloqulixon, Ilyali, Ko'hna Urgench, Polvon kanali.

Abstract: This article provides information about the irrigation system of the Khiva Khanate, in particular, the agricultural work carried out during the reign of Anushakhon and Alloqulikhan, and the Shahabad, Yormysh and Palvan canals dug for irrigation.

Keywords: Khiva Khanate, Anushakhon, Shahabad, Yormysh, Alloqulikhan, Ilyali, Old Urgench, Palvan canal.

Аннотация: В данной статье представлены сведения об ирригационной системе Хивинского ханства, в частности, о сельскохозяйственных работах, проводившихся в период правления Анушахона и Аллокулихана, а также о прорытых для орошения каналах Шахабад, Ёрмыш и Палван.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Анушахон, Шахабад, Ёрмыш, Аллокулихан, Ильяли, Старый Ургенч, канал Палван.

KIRISH. O'rta Osiyo iqlim sharoiti qurg'oqchilikka yaqin bo'lgani va katta qismini cho'l hududlari egallagani uchun azaldan sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik bilan shug'ulanib kelgan. Jumladan, 1512-yilda tashkil topgan Xiva xonligi hududi cho'l bo'lganligi va bu hududga yog'ingarchilik juda kam bo'lishi natijasida sug'orish tizimi davlatning eng muhim sohalaridan biri bo'lgan. Shug'orish, suv ishlari bilan shug'ullanadigan amaldorlar bo'lib, ularning zimmasiga muhim ishlar yuklatilgan. Hukmdorlar

ham sug'orish tizimini yaxshilash uchun ko'plab islohotlar amalga oshirganlar, kanallar va ariqlar qazdirganlar.

Xiva xonligi hududidagi yagona daryo bu Amudaryo. To'g'ri, turkmanlar hududida ba'zi kichikroq daryolar mavjud, lekin har doim ham turkmanlar hududi xonlik tarkibida bo'lavermagan. Xivada hukmronlik qilgan shayboniylar sulolasi vakillaridan biri Anushaxon davrida (1663-1686) Janubiy Xorazmda Shohobod va Yormish kabi ikkita katta kanal qazilgan. Yormish kanalining

qurilishiga sabab Kat shahrining suvsiz qolganligi bo'lgan. Shuning uchun shahar aholisining suvga muhtojligini nazarga olib u yerda "Yormish" deb atalgan kanalni qazish haqida buyurgan va u yerda Qiyot qal'asini qurdirgan. Eski Katda yashovchilar Qiyotga ko'chib o'tgan. Bu ishlar hali Shohobod kanali qazilmasdan oldin 1681-yilda amalga oshirilgan edi. Yormish kanali Urganchdan 15 km sharqda Amudaryodan qazib o'tkazilgan va u Daryoliq bilan parallel oqadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Kanalni uzunligi 96 km, o'rtacha kengligi 17,5 m boshlanish qismining chuqurligi 2 m. Kanal Ilyali shahri shimolidan 10,5 km naridagi Oqko'l chegarasida tamom bo'ladi[4.-B 209]. Ikkinchi kanal – Shohobod (xalq tilida Shovot) Xorazmda eng katta kanal hisoblanadi. Uning boshlanish joyi qadimgi Dovdon daryosining o'zanida bo'lib, sohil bo'yi hududlari yosh allyuvial qatlamlar (qayir) bilan qoplangan. Kanal Xonqa shahri yaqinida Dovdonning ochiq qatlamlariga kirib boradi va shu eski o'zanda 30 km masaofiga oqadi. U Urganchning g'arb tomonida shimoli-g'arbiy tomonga keskin burilish qilib ancha qadimgi bo'lgan allyuvial qatlamlar polosasiga hamda Yormish kanali bilan parallel ravishda vodiyning o'zanlararo umumiy qiyaligiga o'tadi. Shohobod kanalining uzunligi 143 km, o'rtacha kengligi 30 m, o'rtacha chuqurligi 3,5 m. U Xonqa, Urganch, Shohobod, Toshovuz va Ilyali shaharlari g'arbidan 6-7 km narida tamom bo'ladi. Shohobod kanalining o'rta va quyi havzasiga to'g'ri keluvchi Dovdonning o'ng qirg'og'idagi hududlar ancha qadimiylidir. Kushonlar hukumronligi davrida va qisman o'rta asr boshlarida bu yerlarda Qandumqal'a, Rait, Tuproqqal'a va shu singari birqancha aholi yshaydigan punktlar vujudga kelgan. Shohobod va Yormishni yangi kanal deb hisoblash mumkinmi, degan savol tug'iladi. X asr arab geograflari tasviriga ko'ra, Anushaxon qazdirgan Shohobod va Yormish kanallari joylashgan yerda Vadok va Buva kanallari bo'lgan. Bundan Vadok kanali kengligi va joylashuv o'rniga qarab Shohobodga, ikkinchisi esa, Yormish kanaliga to'g'ri keladi. Vadok va Buva Ko'hna Urganchga yetmasdan 30 km berida birlashib

ketgan va umumiy bir o'zan bilan (Amudaryo bu vaqtda Ko'hna Urganch bilan Mazdaxqon o'rtasida oqqan) shahar tomonga oqqan. Anushaxon Shohobod va Yormish kanallariga qarashli bo'lgan asosiy yerlarni o'zbeklarga berdi, ularni davlatning yuqori organlariga tayinladi, turkmanlar esa, G'azobod, Shohobod va Yormish kanallari etaklarida joylashtirilgan[4.-B 210].

Tabiiyki, sug'orish inshootlarini muttasil ta'mirlab turish va yangi inshootlar qurish, katta sug'orish tizimlarini tashkil etish uchun juda ko'p mablag' va kuch sarflash zaruriyati tug'ular edi. Markaziy hokimyat qanchalik barqaror bo'lsa, sug'orish tizimida shu qadar ishlar amalga oshiriladi va foydalaniladigan yerlar ham kengayadi. 1860-yillarda Daryoliq kanalining Yormish va Qilichniyozboy ariqlari oralig'idan Amudaryodan chiqqan suvni butun o'zani bo'ylab, Ko'hna Urganchdan boshlab yuqorida Lavzan ariqqa quyilgan joyigacha uchta to'g'on qurilgan.

MUHOKAMA. Qo'ng'irotlar sulolasi davrida ham sug'orish tizimida katta ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Olloqulixon davrida yangi kanallar qazilib, sug'orish ishlari bo'yicha talay ishlar amalga oshirildi. Olloqulixon davlat ishlarida mamlakatni suv bilan ta'minlashni eng muhim vazifalar qatoriga qo'ygan. 1829-yilda iqlim quruq kelib dehqonlar ancha qiynalib qoladi. Shu vaqtda mamalakat janubidagi turkmanlar notinchligi sabab Olloqulixon u yerga o'zi borishga majbur bo'ladi. Lekin dastlab xon dehqonlarning suvdan qiynalishining oldini olish uchun Pahlavon ota shahrining boshlanishiga borib, o'tgan yil qirdan yordirgan Toshsoqa arig'ini yangidan hashar yo'li bilan qazdiradi va dehqonlar yerlariga suv chiqarib, keyin turkmanlar yurtiga boradi. Ko'hna Urganchga suvning kelishi hayotni qaytadan jonlantirib yboradi. Suvsizlikdan qaqrab yotgan yerlar qayta o'zlashtirildi.

Olloqulixon, 1841-yilda Usta, Iljiq, Xiroj, Denov, Chekas, Xo'ja Kenagas va shu kabi uncha katta bo'lmagan Buxoro qishloqlari aholisini Xorazmga ko'chirgan. Xon ularni Qorako'z, Qilichniyozboy va Xonyop (Ko'hna Urganch) kanallari etaklariga joylashtirgan. "Buxoroning Labob qishlog'i aholisi, – deb yozadi Xiva xonligi

muarrixlari, – Olloqulixon ularni ko‘chirgandan boshlab Mang‘it bilan Qipchoq o‘rtasidagi Bo‘zsuv kanali bo‘yida yashardilar. Olloqulixon Ko‘hna Urganch (Devkesgan) xarobalari yaqinidagi daryoliqqa to‘g‘on solgan va u yerda dehqonchilik uchun yaroqli bo‘lgan yerlarni sug‘organ. Labob aholisini u yerga Bo‘zsuv kanalidan ko‘chirib olib kelganlar”[4.–B.231].

NATIJALAR. Xonlik aholisining har yillik majburiy mehnatlaridan biri bu kanal va ariqlarni tozalash va qazishdan iborat bo‘lgan. Jumladan, barcha asosiy kanallardan faqat Polvon ota kanaligina xonning bevosita qaramog‘ida bo‘lib, uning har yilgi tozalash ishlarining boshidan oxirigacha tepasida turib, o‘zi boshqarardi. “Polvon”ni tozalash odatda mart oyining birinchi yarmida boshlangan. Tozalash ishlari tugagach kuzda, shox-shabbalardan yasalgan to‘g‘on asta-sekin suvning bosimiga qarab olib tashlanadi. Bu ishlar hammasi bo‘lib 7-8 kunda amalga oshirilgan. Boshqa kanallar ikki yilda bir, ba‘zilari esa uch yilda bir tozalanagan. Hashar ishlariga har bir oila bir kishidan berishi shart bo‘lib, buni xonning amaldorlari kuzatib nazorat qilib borgan[2.-B 57].

Xiva xonligida asosan o‘zbeklar dehqonchilik bilan shug‘ullanib, dehqonchilikka yaroqli yerlarda yashashgan. Ijtimoiy hayotda xon va uning amaldorlari va diniy ulamolari mavqei baland bo‘lib, iqtisodiy hayotni tashkil etuvchi yer ham asosan ular qo‘lida bo‘lgan. Yersiz va kam yerli dehqonlar ulardan ijaraga yer olib ishlaganlar va ahvoli juda og‘ir bo‘lgan[3.-B.327].

Xiva xonligida istiqomat qilgan aholi asosan g‘alla yetishtirish va bog‘dorchilik bilan shug‘ullangan. Kanal va ariqlarning bo‘ylrida ekinzorlar, uzumzorlar va serhosil bog‘lar bo‘lgan. Sabzavotlardan karam, sholg‘om va kartoshkadan boshqa hammasi yetishtirilgan[1.-B 323].

Xiva xonligidagi dehqonlar ko‘payib borishi bilan suv bilan ta‘minlash qiyinlashib boraverdi. Dehqonlarga suv taqsimlash ularning navbat bilan suvga egalik qilishini ta‘minlash maqsadida xonlikning har bir hududiga miroblar tayinlangan. Miroblik lavozimi anchagina

mas‘ulyatli bo‘lgani uchun xonlar o‘zlariga yaqin kishilarni tayinlagan. Jumladan, xonlikdagi mashhur miroblar Munis va Ogahiyilar hisoblanadi. 1829-yilda Munis vafot etgach, uning o‘rniga jiyani Ogahiy miroblik lavozimiga tayinlanadi. O‘z navbatida Ogahiy mashhur Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruzga (1864 – 1910) ustozlik ham qilgan.

XULOSA. Xulosa qiladigan bo‘lsak, Xiva xonligi, umuman O‘rta Osiyo hududida azaldan aholi o‘z hududiga yaqin daryolardan kanallar, ariqlar chiqarib, suv omborlari qurishib dehqonchilikda sun‘iy sug‘orishga asoslangan xo‘jalik yurtganlar. Xiva xonligi hududa ham XV-XIX asrlar davomida ko‘plab kanallar, jumladan Shohobod, Yormish, Toshsoqa, Qilichniyozbek kabi yirik sug‘orish tarmoqlarini yaratganlar. Chunki Xiva xonligi hududagi tuproq unumdorligi pastligi sabab, sho‘rlanib, qurib suvga muhtoj bo‘lib qoladi. Xiva xonligi iqtisodini yer va dehqonchilik tashkil qilgani uchun hukmdorlar ham sug‘orish ishlariga jiddiy e‘tibor berib, sug‘orish tarmoqlari qurilishida ham, ularni ta‘mirlash ishlarida ham o‘zlari bosh-qosh bo‘lishgan. Shu bilan birga, aholiga har yili majburiy mehnat joriy etilgan, har bir oiladan bir kishi o‘z mehnat quroli va ozuqasi bilan qatnashishi shart bo‘lgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. D.Alimova. Manbashunoslik. – Toshkent: Turon-iqbol, 2019.481. b.
2. М.О.Нигматуллаевич. Хива хонлиги Оллокулихон даврида.-Тошкент-2003. 136 b.
3. Р.Х.Муртазаева. Ўзбекистон тарихи. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. 677b.
4. Я.Ғ.Ғуломов. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Тошкент: Ўзбекистон ССР фанлар академияси нашриёти. 1959. 326 б.
5. К.Холиқов , К.Худойбергенов. Хоразм кўнғирот иноқлари шажараси. – Тошкент: Академнашр, 2021. – 298 б.
6. <https://docx.uz/document/xonliklar-davrida-sug-orish-tizimi98af1a07?lang=uz>.